

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT
INSTITUTI
“TIKUV BUYUMLARINI KONSTRUKSIYALASH VA
TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI**

Absalomova Navro'za

**PRET – A – PORTE YO'NALISHIDA AYOLLAR KIIYIMI
TO'PLAMINI ISHLAB CHIQISH**

Mavzusidagi diplom loyiha ishi

Ilmiy rahbar

Katta o'qituvchi

Isayeva D.X

Maslahatchi

Katta o'qituvchi

Bobojonova M.A.

Toshkent 2015

Mundarija

T/r	Diplom loyiha bo'limlar nomi	Bet
	Kirish	
I.	Badiiy muhandislik qismi	
1.1	Texnik topshiriqni loyihalash va bajarish uchun boshlang'ich ma'lumotlarni ishlab chiqish	
1.2	Zamonaviy moda yo'nalishi tahlili	
1.3	Eskiz loyihani ishlab chiqish	
II.	Muhandis – konstruktorlik qismi	
2.1	Loyihalanayotgan ob'yekt material paketini konfeksionlash	
2.2	Asosiy konstruksiya qurish usulini asoslab tanlash	
2.3	AK chizmasini qurish uchun dastlabki ma'lumotlar	
2.4	Asos konstruksiyani qurish va hisobi	
2.5	Loyiha ob'yektini konstruktiv modellash	
2.6	Ishchi hujjatlarni tuzish	
2.6.1	Yangi model andozalarini tayyorlash prinsiplari	
2.6.2	Loyihalanayotgan modelga gazlama sarflash normasining hisobi	
III.	Texnologik qism	
3.1	Tikuv buyumlarini tayyorlash jarayonini texnologik bog'liqligini tahlili	
3.1.1	Asbob – uskuna va tikish usullarini tanlash va asoslash	
3.1.2	Buyum tikish texnologik tartibini tuzish	
3.2	Ishlab chiqarish oqimini va sexini loyihalash	
3.2.1	Ishlab chiqarish oqimini loyihalash masalasini tuzish. Oqim turini va transport vositalarini tanlash	
3.2.2	Ishlab chiqarish oqimini tashkiliy – texnik yechimini va dastlabki ma'lumotlarni shakllantirish	
3.2.3	Ishlab chiqarish oqimining tashkiliy – texnologik sxemasini tahlil qilish	
3.2.4	Ishlab chiqarish oqimini tashkiliy – texnik yechimini iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash	
3.2.5	Ishlab chiqarish oqimini va tikuv sexi planini tuzish	
3.2.6	Qo'shimcha assortimentni hisoblash	
IV.	Ekologiya qismi	
4.1	Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni taftish qilish va rasmiylashtirish	
V.	Iqtisodiy qism	
	Xulosa	
	Foydalanilgan adabiyotlar	
	Ilovalar	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti yildan – yilga barqarorlashib bormoqda. Bunga O'zbekistondagi korxonalarni qo'llab – quvvatlash hisobiga erishilmoqda. Respublikamizda hozirgi kunda 40 mingdan ziyod sanoat korxonalari o'z ish faoliyatlarini olib bormoqda. O'tgan yili To'qimachilik va yengil sanoatning 2014 – 2020 yillarga mo'ljallangan rivojlanish kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Kontseptsiyaga muvofiq 2020 yilga borib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 6.97 trln. so'mga oshirish rejalashtirilgan. Bulardan 296 mln. donasi tikuvchilik sanoati mahsulotlari bo'lishi ko'zda tutilgan. Tikuvchilik sanoati yengil sanoatning asosiy yirik qatlamlaridan biridir. Tikuvchilik sanoatining asosiy maqsadi – insonlarning yuqori sifatli va turli assortimentdagi kiyimlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir. Bunday ko'rsatkichga erishishda zamonaviy texnika va texnologiyalar, asbob – uskunalar hamda yetuk malakali mutaxassislar bilan ta'minlangan tikuvchilik korxonalarining o'rni beqiyosdir.

O'zbekistonda to'qimachilik va yengil sanoatni rivojlantirish uchun tabiiy xom ashyo resurslari mavjud. Tabiiy xom ashyo resurslaridan keng foydalangan holda jahon standartlariga to'liq javob beradigan ichki va tashqi bozorlar uchun yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning har bir tarmog'i rivojlanishining asosiy omillaridan biri, ishlab chiqariladigan mahsulotning jahon bozoriga eksport qilinishidir. Eksport qilinayotgan mahsulotlarning 27 foizi tikuvchilik sanoatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hisobiga to'g'ri keladi.

Tikuvchilik sanoati oldiga qo'yiladigan masalalarni yechishda, kiyimni amaliy va ilmiy jihatdan konstruksiyalash ishlari yetakchi o'rin egallaydi, chunki loyihalashning ayni shu bosqichida kiyimga va uning sifatiga qo'yiladigan barcha ijtimoiy va texnik – iqtisodiy talablar to'liq hisobga olinishi shart. Ushbu talablar asosiga yangi kiyim modeli ishlab chiqiladi.

Ishning maqsadi:

Diplom loyihasining mavzusi: prêt – a – porte yo'nalishida ayollar kiyimi to'plamini ishlab chiqish.

Diplom loyihasida quyidagi qismlar yoritiladi:

1. Badiiy muhandislik qismi
2. Muhandis – konstruktorlik qismi
3. Texnologik qism
4. Ekologiya qismi
5. Iqtisodiy qism

I. BADIY MUHANDISLIK QISMI

1.1. TEXNIK TOPSHIRIQNI LOYIHALASH VA BAJARISH UCHUN BOSHLANG'ICH MA'LUMOTLARNI ISHLAB CHIQISH

Texnik topshiriq – kiyimning asosiy vazifasi, texnik tavsifi, sifat ko'rsatkichlari, ishlab chiqilgan buyumga qo'yiladigan texnik – iqtisodiy talablar, konstruktorlik hujjatlarining bosqichlari, ularning tarkibi va kiyimga qo'yiladigan maxsus talablarni belgilovchi konstruktorlik hujjati.

Loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar:

Buyum nomi:	Ayollar kiyimi to'plami
Buyumning vazifasi:	Kundalik
Tananing antropometrik xarakteristikasi:	164 – 96 – 104, III to'lalilik guruhi.
Iqlim zonasi:	O'zbekiston
Paket materiallari nomi:	Jaket uchun Avra: paxta tolali baxmal Astar: sun'iy shoyi Ko'ylak uchun Aralash tolali.

Har bir iste'molchi kiyim sotib olayotganda, shu kiyimga nisbatan o'zining bir qancha talablarini qo'yadi. Ular orasida ayollar kiyim sifatiga juda talabchan bo'lishadi. Shuning uchun birgina kiyim tanloviga ham juda ko'p vaqt sarflashadi. Iste'molchilar doimo yoqtirib va yaxshi ko'rib kiyiladigan liboslar yaratish uchun, dizayner, konstruktor va texnologlar bir qancha kiyim sifat ko'rsatkichlarini o'rganib chiqishadi. Yengil sanoat mahsulotlariga qo'yiladigan talablarni yirik ikki guruhga bo'lish mumkin.

Iste'molchi talablari: funksional, estetik, ergonomik, ekspluatasion talablar.

Kiyimning funksional ko'rsatkichlarga javob bera olishi, uni asosiy vazifasiga va muayyan maqsadiga mosligini, iste'molchining o'lchami, yoshi va to'lalilik guruhi xususiyatlariga mosligini ko'rsatadi. Ayollar doimo go'zal, yosh va xushqomat ko'rinishga intiladi. Ayollarning libosi yoshiga mos bo'lishiga xattoki uni yosh ko'rsatishiga, o'lcham va qomatiga, uni kasbi va ish faoliyatiga mos bo'lishiga funksional talablarni bajarilishi orqali erishiladi.

Estetik ko'rsatkichlar estetik ehtiyoj, go'zallik qonunlariga ko'ra, insonning go'zallikka va ijodga bo'lgan talablarini bildiradi. Estetik ko'rsatkich ayollar kiyimi uchun eng muhim birlamchi ko'rsatkich hisoblanadi. Liboslarning silueti,

rangi, bichimi, aksessuarlari, mato fakturalari zamonaviy moda yo'nalishiga mos va estetik jihatidan chiroyli bo'lishi ayollar e'tiborini o'ziga jalb etadi.

Ergonomik ko'rsatkichlar buyumning insonga moslashganlik darajasini bildiradi. Kun davomida kiyishga mo'ljallangan kiyimlar iste'molchining hatti harakatlariga, gigienik jihatlariga mos bo'lishi kerak. Ayollar kiyimida ham bu ko'rsatkich albatta inobatga olinishi zarur. Ayollarning aktiv ish – faoliyati davomida hatti harakatlarini chegaralamasligi, ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, haddan tashqari ko'p aksessuarlardan foydalanib kiyim og'irligini oshib ketmasligi va gigienik jihatdan sog'ligiga zarar keltirmasligi kerak.

Sevimli kiyimni doimiy ravishda va uzoq muddat kiyish ayollarga ham xos xususiyat hisoblanadi. Ayollar kiyimini iste'mol davrini uzoqroq qilishga yordam beradigan talab bu ekspluatatsion talabdir. Ekspluatatsion ko'rsatkichlar ekspluatatsiya davrida kiyimning ishonchlilik ko'rsatkichi detallarning shakl saqlovchanligi, chidamliligi, choklarning pishiqliligi bilan karakterlanadi.

Har qanday kiyim assortimenti kabi ayollar kiyimiga ham iste'molchi talablaridan tashqari texnik – iqtisodiy talablar qo'yiladi. Bu talablar buyumning sifatidan tashqari tan narxiga ta'sir etadi. Bozorga sifatli va arzon kiyimlar yetkazishda bu talablarning ham o'rni juda katta.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar konstruksiyaning texnik jihatdan mukammallik darajasini, ishlab chiqarish va iste'molchi harajatlarini hisobga olgan holda kiyimni loyihalash va texnologik usullarini bildiradi.

Texnik – iqtisodiy talablar: Standartlash va unifikatsiyalash ko'rsatkichlari modellarning konstruktiv va texnologik jihatdan bir – biri bilan bog'lanish darajasini ko'rsatadi. Standartlashning asosiy vazifalaridan biri barcha yechimlar sonini minimal oqilona yechimlarni keltirishdir, shu bilan birga mahsulotni loyihalashga tayorlashga va ishlatishga sarf harajatlar kamayadi. Loyihalash muddati qisqaradi.

Konstruksiyaning ishlov berishga qulaylik ko'rsatkichi. Mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish va foydalanish bosqichlarida barcha mehnat, vaqt va boshqa vositalarning sarf harajatlarini kamaytirishga qaratilgan.

Iqtisodiy ko'rsatkichlari iste'molchiga va ishlab chiqarishga oid talablarni o'zaro bog'lab mahsulotni konstruksiyalash, ishlab chiqarishda texnologik ishlarni tayyorlash va ishlov berish, hamda foydalanish jarayonlarida sarf harajatlarni bildiradi. Kiyimni ekspluatatsiya qilish jarayonida iste'molchiga oid sarf harajatlarni masalan kimyoviy tozalash, yuvishga va ta'mirlashga sarf qilingan harajatlarni ham iqtisodiy ko'rsatkichlarga kiritish mumkin.

1.2. ZAMONAVIY MODA YO'NALISHI TAHLILI

*“Pret – a – porte – podiumdan
do'konlarga to'g'ridan – to'g'ri
yuboriladigan kiyimlardir”*

Miuchcha Prada

“Prêt – a – porte” so'zi fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, “iste'molga tayyor” ma'nosini anglatadi. Pret – a – porte dizaynerlar tomonidan omma uchun ishlab chiqariladigan liboslardir. Bu yo'nalishda tikilgan kiyimlar modalar uyi uchun asosiy daromad manbai hisoblanadi. Bu yo'nalishda ijod qilish XX asrning 50 – yillaridan boshlangan.

2015 yil bahor – kuz mavsumi moda yo'nalishi asosida, pret – a – porte yo'nalishida ayollar kiyimi modellari o'rganilib chiqildi. Bu yo'nalishda 2015 yil bahor – kuz mavsumi uchun dizaynerlar tomonidan taqdim etilgan kiyim to'plamlari orasida tukli matolardan tikilgan jaket, klassik hamda romantik uslubdagi ko'ylaklar alohida o'rin egallagan.

Buyum uchun tanlangan mato uni qimmatbaho va estetik jihatdan chiroyli ko'rinishini ta'minlaydi. Tukli matolar orasidan barxat ana shunday qimmatbaho matolar sirasiga kiradi. Bu yil bahor – kuz mavsumi uchun taqdim etilgan jaketlar klassik, romantik, casual, military uslublarida yaratilgan. Jaketlar tanlangan uslubiga ko'ra yarim yopishgan, to'g'ri siluetlarda bo'lib, ko'ylaklar uchun esa yopishgan, yarim yopishgan va to'g'ri siluetlar tanlangan.

Jaketlarga rang tanlashda 2014 – 2015 yillarda “Pantone” tomonidan taqdim etilgan ranglar to'plamidan foydalanilgan. Bu ranglar to'q qizil, siyoh rang, to'q ko'k rang, qora rang, sariq rang, jigarrang, yashil rang va kul ranglardir. Ko'ylaklar uchun bir muncha ochiq va yorqin ranglar tanlanib asosan mayda va yirik gulli fakturaga ega matolardan foydalanilgan.

Jaketlar shall yoqali, pidjakkop yoqali, tik yoqali, yoqasiz, yoqa o'mizi shakldor qilib ishlangan. Ko'ylaklar qaytarma yoqali, ko'tarma qaytarma yoqali, tik yoqali, yoqasiz, yoqa o'mizi shakldor qilib ishlangan. Jaket yenglari asosan uzun ikki chokli, ko'ylaklar esa yengi uzun, yeng uchi manjet yoki rezina tasmali, yeng uzunligi $\frac{3}{4}$, kalta, yengsiz qilib ishlangan.

Jaketlarda qoplama cho'ntakli, qirqma qopqoqli cho'ntak, listochkali qirqma cho'ntaklar kabi, ko'ylaklarda esa bel tasmasi kabi unifikatsiyalashtirilgan detallardan foydalanilgan. Jaketlar uchun bezak sifatida tabiiy charm va atlas shifon matolaridan foydalanilgan. Taqilmasiga metall, plastmassa tugmalar hamda molniya tasmasidan foydalanilgan.

1.3. ESKIZ LOYIHASINI ISHLAB CHIQISH

Modelga tavsif

Taklif model – 1

Ayollar uchun prêt – a – porte yo'nalishida bahor – kuz mavsumiga, kundalik kiyishga mo'ljallangan komplekt. Komplekt jaket va yubkadan iborat.

Jaket matosi tukli mato barxat bo'lib, silueti yarim yopishgan.. Jaket bo'yin o'mizi va etagi shakldor bo'lib, taqilmasi bezak ilgak bilan ishlangan.

Jaket old bo'lagi relyef chokli.

Ort bo'lak relyef va o'rta chokli.

Yengi o'tkazma, bir chokli, uzunligi $\frac{3}{4}$ uzunlikda.

Jaket old yon bo'lagi, ort yon bo'lagi va yengni yelka qismi kashta bilan bezatilgan. Bo'yin o'mizi, bort, etak va yeng uchlari mag'iz bilan bezatilgan.

Jaket astari etakkacha.

Yubka matosi sun'iy tolali bo'lib, silueti trapetsiyasimon. Yubka old bo'lagi va ort bo'lagi taxlamali qilib ishlangan. Yon chok davomida yuqori qismida molniya tasmasi bor. Yubka uzunligi tizzagacha.

Bu komplekt 164 – 170 bo'yli, III – to'lalilik guruhidagi 46 – 48 o'lchamli ayollarga tavsiya etiladi.

Taklif model – 2

Ayollar uchun prêt – a – porte yo'nalishida bahor – kuz mavsumiga, kundalik kiyishga mo'ljallangan komplekt. Komplekt jaket va klassik uslubdagi shimdan iborat.

Jaket matosi tukli mato barxat bo'lib, silueti yarim yopishgan. Jaket bir bortli, taqilmasi bitta tugmali. Bo'yin o'mizi va etagi shakldor qilib ishlangan.

Jaket old bo'lagi yeng o'mizidan chiqqan relyef chokli.

Ort bo'lak yeng o'mizidan chiqqan relyef va o'rta chokli.

Yengi o'tkazma, bir chokli, uzunligi $\frac{3}{4}$ uzunlikda.

Jaket bo'yin o'mizi va bort atrofi kashta bilan bezatilgan. Bo'yin o'mizi, bort, etak va yeng uchlari mag'iz bilan bezatilgan.

Jaket astari etakkacha.

Shim matosi sun'iy tolali bo'lib, silueti yarim yopishgan. Taqilmasi gulfikli, molniya tasmasi bilan ishlangan. Belbog'ida bitta tugma va bitta izma ishlangan. Uzunligi to'piqqacha.

Bu komplekt 164 – 170 bo'yli, III – to'lalilik guruhidagi 46 – 48 o'lchamli ayollarga tavsiya etiladi.

Taklif model – 3

Ayollar uchun prê – a – porte yo'nalishida bahor – kuz mavsumiga, kundalik kiyishga mo'ljallangan komplekt. Komplekt jaket va ko'ylakdan iborat.

Jaket matosi tukli mato barxat bo'lib, silueti yarim yopishgan. Jacket bo'yin o'mizi va etagi shakldor qilib ishlangan bo'lib taqilmasi belbog' bilan ishlangan.

Jaket old bo'lagi koketkali, koketka osti markazidan boshlanadigan relyef chokli. Jacket old yon bo'lagida bel chizig'idan 2 sm yuqorida ulama belbog'i bor.

Ort bo'lak koketkali, koketka ostidan boshlanadigan o'rta va relyef chokli.

Yengi o'tkazma, bir chokli, uzunligi $\frac{3}{4}$ uzunlikda bo'lib yeng uchi gipyur bilan bezatilgan.

Jaket old va ort koketkalari, ulama belbog'i kashta bilan bezatilgan. Bo'yin o'mizi, bort, etak, ulama belbog' yuqori va pastki choklari mag'iz bilan bezatilgan.

Jaket astari etakkacha.

Ko'ylak matosi sun'iy tolali bo'lib, silueti yarim yopishgan. Bo'yin o'mizi "qayiqcha" shaklida qilib ishlangan. Ko'ylak bel chizig'idan 3 sm yuqorida bel chokli qilib ishlangan. Ko'ylak etagi konussimon kengaytirilgan.

Old bo'lak ko'krak va bel vitochkali.

Ort bo'lak bel vitochkali va o'rta chokli. O'rta chok davomida yuqori qismida molniya tasmasi bor.

Yengi o'tkazma va kalta. Yeng o'mizi yeng tugagan joydan mag'iz bilan ishlangan. Ko'ylak uzunligi tizzadan pastda qilib ishlangan.

Bu komplekt 164 – 170 bo'yli, III – to'lalik guruhidagi, 46 – 48 o'lchamli ayollarga tavsiya etiladi.

Taklif modellarni sifat ko'rsatkichlari bo'yicha baholash

1.2 – jadval.

T/r	Guruhli va yakka sifat ko'rsatkichlarining nomi	Sifat ko'rsatkichlarining belgilanishi	Sifat ko'rsatkichlarining ahamiyatliligi			
			TM – 1	TM – 2	TM – 3	Etalon
I.	Iste'molga oid talablar:	K ₁	63	62.5	64.5	67
	- ijtimoiy	K ₁₁	3	3.5	3.5	4
	- FunkSIONal	K ₂₁	13	13	13.5	14
	- Estetik	K ₃₁	17	17	17.5	18
	- Ergonomik	K ₄₁	15	14.5	15	15.5
	- ekspluatasion	K ₅₁	15	14.5	15	15.5
II.	Texnik – iqtisodiy talablar:	K ₂	28.5	28	30	32
	- Standartlash va unifikasiyalash	K ₂₁	9	9	10	11
	-Konstruksiyaning ishlov berishga qulaylik	K ₃₁	9	8.5	9	10
	- Iqtisodiy	K ₄₁	10.5	10.5	11	12
	Jami		91.5	90.5	94.5	100

Taklif modellarning sifat ko'rsatkichlari tahlil qilinib, iste'molchi sifat ko'rsatkichlari va texnik – iqtisodiy sifat ko'rsatkichlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni ko'rsatgan TM – 3 tanlandi.

II. MUHANDIS – KONSTRUKTORLIK QISMI

2.1. LOYIHALANAYOTGAN OB'YEKT PAKETINI KONFEKSIONLASH

O'zbekiston iqlimi keskin o'zgaruvchan kontinental iqlimdir. Mintaqadagi kunduzgi va tungi, yozgi va qishki havo harorati keskin farqlidir. Yillik havo harorati sezilarli darajada yuqori. Bahor va kuz fasillarida yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi sababli o'rtacha nisbiy namlik miqdori 30 – 40 % gacha ko'tariladi. Pasttekislik hududlarida yillik yog'ingarchilik miqdori 120 – 200 mm, cho'l hududlarida 1000 mm gacha yetadi.

Loyihalanayotgan ob'yeckt paketini tanlayotganda mavsum albatta inobatga olinishi shart. Tukli gazlamalar ana shunday bahor va kuz mavsumlariga mos bo'lgan matolardan hisoblanadi. Tukli gazlamalar arqoq – tukli o'rilishda to'qiladi, o'ng sirtida tik tuklari bo'ladi. Tuklar paxta tolalarini qirqib hosil qilinadi. Tukli gazlamalar kichik gruppasiga yarim baxmal, baxmal va chiyduxoba kiradi. Yarim baxmal va baxmal qayta tarash usulida yigirilgan kalava ipdan to'qiladi, kalta sidirg'a tuki bo'ladi. Chiyduxobalarning hammasida uzunasiga ketgan tukli yo'llar bo'ladi. Tukli gazlamalardan kiyim tikish ancha qiyin. Ularni bichishda tuklarning qiyaligini hisobga olish kerak. Tikish paytida o'yilishi mumkin. Bunday gazlamalarni choklardan so'kish yaramaydi, chunki tuklari to'kilib ketishi mumkin. Namlab – issitib ishlov berishda kardolentadan foydalanish kerak.

Suniy gazlamalar pishitilmagan viskoza va atsetat iplar, krep va mooskrep iplardan turli nisbatlarda har xil o'rilishda to'qiladi. Sun'iy gazlamalar assortimentiga bluzkalar, ko'ylaklik gazlamalar va paltolik og'ir gazlamalar kiradi. Sun'iy gazlamalar assortimentining ko'p qismi 11 – 17 teksli, eng yupqa gazlamalar 6 – 8.5 teksli iplardan to'qiladi. 1 m² gazlamaning massasi 80 dan 200 grammgacha bo'ladi. Sun'iy tolalardan to'qilgan gazlamalar havo o'tkazuvchanligi past bo'ladi, lekin rang mustahkamligi tabiiy tolalardan to'qilgan gazlamalardan yuqori bo'ladi. Krep usulda pishitilgan iplarni qo'llash gazlamalarning g'ijimlanuvchanligini kamaytiradi. Mooskreplardan to'qilgan gazlamalar unchalik g'ijimlanmaydi, barmoqlarga junga o'xshab unmaydi, lekin xo'llanganda ancha kirishadi. Namlab – issitib ishlov berishda gazlamalarning tola tarkibiga e'tibor berish lozim. Silliqlik sun'iy gazlamalar taxlamani uncha yaxshi ushlaymaydi. Bunday gazlamalarni 90 – 100 nomerli igna, 50 – 60 nomerli g'altak iplar bilan tikish tavsiya etiladi. Sun'iy iplardan to'qilgan gazlamalar krep, glad, jakkard va maxsus xillarga bo'linadi.

Ustki kiyimlarning teskari tomonida astari bo'ladi. Astar ustki kiyimning nafaqat teskari tomonini bezatish uchun, balki tashqi ko'rinishini yaxshilash, uni kiyib yurish va yechish paytida qulaylikni ta'minlash uchun va buyumlardan foydalanish davrini oshirish uchun qo'yiladi. Shuning uchun astarlik materiallar hozirgi zamon modasi yo'nalishiga mos kelishi shart, uning ishqalanishga chidamliligi yuqori ya'ni kostyumlar uchun 1500 davrdan kam bo'lmasligi kerak.

Astarning kirishishi avra materialning kirishishidan ortiq bo'lmasligi kerak. Astar buyumning umumiy og'irligini oshirmasligi kerak. Astar materialning yuza zichligiga ko'ra ular yengil, o'rta va og'ir materiallarga bo'linadi. Bu talablarga asosan sun'iy va sintetik iplardan olingan ipak gazlamalar javob beradi. Bu gazlamalarda quyidagi chiziqli zichlikli iplar qo'llaniladi: tanda va arqoqda 11 – 16.6 teksli viskoza iplari, tanda va arqoqda – 6.7 teksli kapron iplari, tandada – 13.3 teksli viskoza ipi, arqog'ida – 6.7 teksli kapron kapron ipi, tandasida 13.3 – 16.6 teksli viskoza ipi, arqog'ida 18.5 – 25 teksli 193 paxta tolasidan olingan ip, tandasida – 13.3 teksli viskoza ipi, arqog'ida – 16.6 teksli atsetat ipi. Bu gazlamalarning nomlari: astarlik gazlama, astarlik sarja, atlas. O'rinishlari – atlas va sarja.

Ustki kiyimlarni shaklini saqlab turuvchi gazlamalarga dublirin, bartovka, yengil kiyimlar uchun esa flizelin kabi qotirma materiallar qo'llaniladi. Viskoza tolali gazlama sirtiga bir – biridan 2 – 3 mm masofada joylashgan yo'l – yo'l yelim kukunining donachalarini qo'yib yengil paltolik va kostyumlik gazlamalariga qattqlik berish uchun ishlatiladigan oraliq material. Shunga o'xshash 0.56 – 0.69 mm qalinlikdagi yuza zichligi 129 – 168 g/m² ga teng bo'lgan viskoza va lavsan tolalari aralashmasidan olingan gazlamalar ham ishlatiladi.

Molniya taqilmasi gazlama to'qish usulida olingan ikkita bort jiyaklaridan iborat bo'lib, kiyaklarda metal yoki plastmassa halqalar joylashgan bo'ladi. Ulardan tashqari qulfi ham bo'ladi. Taqilmaning po'lat detallari nikellangan bo'ladi. Halqalarning eni 3 – 10 mm va undan ortiq bo'ladi. Taqilmaning uzunligi 120, 150, 180, 200, 300, 500 mm va undan ortiq bo'ladi.

Sintetik iplar tabiiy iplarga nisbatan uzilish va ishqalanishga yaxshiroq chidaydi, uncha kirishmaydi, yorug'lik va ob – havo ta'siriga, oksidlanish, kimyoviy reaktivlar ta'siriga, chetlash va mog'orlashga chidamli bo'ladi. Tikuvchilik sanoatida sintetik iplardan kompleks kapron va lavsan iplar ko'p foydalaniladi. Kapron o'zakli va lavsan o'zakli karkas iplar, taslan tipidagi teksturalangan iplar ham ishlab chiqariladi. Kapron iplarning uzilishiga pishiqligi tabiiy ipak va paxta iplarning pishiqligidan 1.5 – 2 marotaba yuqori. Ba'zi korsatkichlari jihatidan lavsan iplar kapron iplardan ustun turadi: erish

temperaturasi yuqori, choklarda gazlama yig'ilib qolmaydi. Shuning uchun 22 L, 33L, 55L nomerli lavsan iplarni ustki kiyimlarning ustki iplari sifatida ishlatish mumkin. Aralash karkas iplarning sintetik kompleks tolalardan qilingan o'zagi bo'ladi, o'zak paxta tolalari yoki polinoz tolalar bilan qoplanadi. Karkas iplar tarkibida 70 % sintetik tolalar, 30 % paxta yoki polinoz tolalar bo'ladi. Karkas iplarning o'zagi kapron yoki lavsan tolalardan bo'lishi mumkin. Poliefir toladan qilingan o'zakli iplar eng yaxshi hisoblanadi.

Tavsiya qilingan materiallar tavsifi

2.1 – jadval

№	Material nomi	Tola tarkibi		10 sm da zichligi		O'rinishi	Kengligi	Og'irligi, gr/m ²
		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq			
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.	9.
1.	Kostyumlik gazlama (Barxat)	Paxta	Paxta	260	210	Sarja	150	356.7
2.	Ko'ylaklik gazlama (Armani)	Poliefir	Poliefir	440	380	Polotno	150	200.3
3.	Astarlik gazlama	Sintetika	Sintetika	370	320	Murakkab gulli o'rinish	150	83.4

2.2. ASOSIY KONSTRUKSIYA QURISH USULINI ASOSLAB TANLASH

Kiyim konstruksiyalash murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi. Bu jarayon obyekti bo'lib doimiy harakatda bo'luvchi "odam – kiyim" sistemasi hisoblanadi. Evolyutsiya jarayonida odam qomati, uni ehtiyojlari, kiyinish uslublari, moda o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlarni kiyim konstruksiyalashda hisobga olmasdan iloj yo'q. Konstruksiyaning sifatli va yuqori aniqlikda bajarilishi dizaynerning g'oyasini to'liqligicha amalga oshirilishini ta'minlaydi. Shu qatori konstruksiya qurish usulini to'g'ri tanlash ham katta ahamiyat ega.

Ilk marotaba 1891 yilda "Kelajak" nomi bilan ro'yxatdan o'tgan, hozirgi kunda "Myuller va uning o'g'li" nomi bilan ataladigan konstruksiyalashning nemischa usuli aynan shunday takomillashib boradigan usul hisoblanadi. Bu usulda Germaniya ayollar ustki kiyimini ishlab chiqaradigan sanoat birlashmasining yordamida amalga oshirilgan 1994 yilgi antropometrik o'lchamlar asosida konstruksiya quriladi. Asos konstruksiya qurishga 2006 yilda kiritilgan takomillashtirilishlar, doimiy ravishda qo'shimchalarning antropometrik va moda sanoatidagi o'zgarishlar natijasida yangilanib turilishi faqatgina shu usulda kuzatiladi. Bu usul asosida zamonaviy avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi ham ishlab chiqilgan. Bu usul ommaviy hamda individual ishlab chiqarishda ham birdek qo'l keladi. Bu usulda aholining antropometrik o'zgarishidan hamda kiyim modellarining o'zgarishidan tashqari mato xususiyati ham e'tiborga olinadi. Bu usuldan "Graphis" va "Assist" kabi avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlarida keng qo'llaniladi.

Bu usulda asosiy o'lchamlar o'lchash usulida, qolgan o'lchamlar esa berilgan matematik formulalar yordamida hisoblab topiladi. Bu usulda o'lcham olish qoidalarini bilan rasmiy qo'llanma asosida berilgan. Yelka kiyimlari uchun asosiy o'lchamlar qatoriga bo'y – P , ko'krak aylanasi – O_r , bel aylanasi – O_t , bo'ksa aylanasi – O_6 , yeng uzunligi – D_p kiradi. Bu usulda konstruksiya qurish oson. Bu usulda yelka kiyimlar uchun asosiy konstruksiya o'ngdan chap tomonga qaratib, bel kiyimlari chapdan o'ng tomonga qaratilib quriladi. Nuqtalar raqamlar bilan belgilanadi. Konstruksiya qurish ketma – ketligi keng va tushunarli qilib izohlab yozilgan. Har bir kiyim assortimenti uchun qo'shimchalar jadvali kiritilgan. Bundan tashqari na'muna uchun keltirilgan modellarning qanday modellashtirilishi ham ko'rsatilgan.

Umumlashtiradigan bo'lsak, bu usul butun dunyo tan olib, moda sanoatida keng qo'llanilib kelinayotgan usulblardan biridir.

2.3. ASOSIY KONSTRUKSIYA CHIZMASINI QURISH UCHUN DASTLABKI MA'LUMOTLAR

Individual figuraning o'lchamlari

2.2 - jadval

T/r	O'lcham nomi	Belgilanishi	Qiymati (sm)	
			Jaket	Ko'ylak
1	2	3	4	5
1.	Bo'y	P	164	164
2.	Ko'krak aylanasi	O _r	96	96
3.	Bel aylanasi	O _T	82	82
4.	Bo'kksa aylanasi	O ₆	105	105
5.	Yeng uzunligi	D _p	60	60
6.	O'miz chuqurligi	Γ _{np}	20.6	20.6
7.	Bel uzunligi	D _{cn}	40	40
8.	Bo'ksa balandligi	B ₆	60.6	60.6
9.	Buyum uzunligi	D _u	50	100
10.	Ort o'miz uzunligi	D _{rc}	7.5	7.5
11.	Ko'krak balandligi	B _{rII}	27	27
12.	Old bel uzunligi	D _{tnII}	44.5	44.5
13.	Orqa kenglik	III _c	18.5	18
14.	O'miz kengligi	III _{np}	13.5	12
15.	Ko'krak kengligi	III _r	21.5	21.5
16.	Yelka kengligi	III _n	12.6	12.6
17.	O'miz balandligi (chizmadan o'lchanadi)	B _{np}	43	40
18.	O'miz uzunligi (chizmadan o'lchanadi)	D _{np}	49.5	46.5
19.	O'miz kengligi	III _{np}	13,5	12
20.	Yeng uchi kengligi	III _{ph}	28	28
21.	Yeng qiyalamasi balandligi	B _{ok}	20.15	18

Asos konstruksiya qurish uchun qo'shimchalar

2.3 – jadval

T/r	Qo'shimchalar nomi	Belgilanishi	Qiymati (sm)
1.	Ko'krak yarim aylanasi qo'shimcha	Π _{cr}	3 – 4
2.	O'miz chuqurligiga qo'shimcha	Π _{rnp}	1 – 1.5
3.	Orqa kenglikka qo'shimcha	Π _{uc}	0.5
4.	O'miz kengligiga qo'shimcha	Π _{np}	1.5 – 2
5.	Ko'krak kengligiga qo'shimcha	Π _{rr}	1 – 1.5

2.4. ASOS KONSTRUKSIYANI QURISH VA HISOBI

Loyihalanayotgan model asosiy konstruksiyasi hisobi

2.4 – jadval

T/r	Kesim nomi	Hisob formulasi	Qiymati	
			Jaket	Ko'ylak
Bazis to'ri.				
1.	1 – 2	Vertikaliga $\Gamma_{np} + \Pi_{rnp}$	23.6	22.1
2.	1 – 3	Δ_{cn}	40	40
3.	1 – 4	B_6	60.6	60.6
4.	1 – 5	Δ_{H}	50	100
5.	1,2,3,4,5 – nuqtalardan gorizantaliga vertikal chiziqlarga perpendikulyar holda chiziqlar o'tkaziladi.			
6.	3 – 6	2sm	2	2
7.	4 – 7	2sm	2	2
8.	5 – 8	2sm	2	2
9.	1, 6, 7, 8 – nuqtalar tutashtirilib 2 – nuqtadan chiqqan gorizantal chiziq bilan tutashgan nuqtada 9 – nuqta belgilanadi			
10.	9 – 10	Gorizantal chiziq bo'ylab III_c	18.5	18
11.	10 – 11	$2/3 III_{np}$	9	8
12.	11 – 11a	6 sm dan 10 sm gacha	6	6
13.	11a – 12	$1/3 III_{np}$	4.5	4
14.	12 – 13	III_r	21.5	21.5
15.	9 – 11 hamda 11a – 13 nuqtalar orasidagi masofa $\frac{1}{2} O_r + \Pi_{cr}$ ga teng bo'lishi kerak			
16.	13 – 14	Gorizantal chiziq bo'ylab o'ng tomonga $1/10 O_r + 1$	10.6	10.6
17.	10 – nuqtadan vertikaliga yuqoriga chiziq chizilib 17 – nuqta belgilanadi. Vertikaliga pastga va yuqoriga chiziqlar chiziladi. 11 – 43, 11a – 43a, 12 – 34 – 38, 13 – 37 – 41 – 46, 14 – 24 – 42.			
18.	1 – 15	$\Delta_{rc} + 0.5$	7.3	7.3
19.	15 – 16	2 sm	2	2
20.	Ort bo'yin o'mizi yoy shaklida chiziladi.			
21.	17 – 18	1 – 1.5 sm	1	1
22.	16 – 19	18 – nuqta orqali $III_n + \Pi_{mc} + (0 – 1sm)$	13	13
23.	10 – 18 kesmani markazi topilib kurak chizig'i chiziladi va chap tomonga 1 sm chiziladi.			
24.	10 – 20	$(10 – 18)/2$	11.3	10.55
25.	20 – 21	1.3 sm	1.3	1.3
26.	19, kurak chizig'i uchi, 21 va 11 – nuqtalar leykalo yordamida tutashtirilib ort yeng o'mizi chiziladi			
27.	12 – 22	10 – 20	5.6	5.3

28.	12 – 23	$(10 - 18) - 2 \text{ sm}$	20.6	19.1
29.	24 – 25	$\Delta_{\text{rn}}\text{II}$	44.5	44.5
30.	25 – 26	$B_r\text{II}$	27	27
31.	26 – nuqtani va 12 – nuqtani mos holda aylana markazi sifatida 25 – va 23 – nuqtalardan yoy chiziladi			
32.	23 – 27	$1/20 O_r$	4.8	4.8
33.	27 – 28	25 – nuqtadan chiqqan yoy bilan tutashtirib $(16 - 19) - (0 - 1\text{sm})$	12	12
34.	27 – 22 nuqtalar tutashtiriladi va shu kesim yarmida 1 – 1.5 sm uzunlikda perpendikulyar ichkariga chiziq chiziladi. 27, yordamchi chiziq bosh nuqtasi, 22 va 11a nuqtalari leykalo yordamida old yeng o' mizi chiziladi			
35.	25 – nuqtani chap tomonga gorizantaliga davom ettirib 13 – nuqtadan vertikaliga yuqoriga chizilgan chiziq bilan kesishgan nuqtasida 29 – nuqta belgilanadi.			
36.	29 – 30	$\Delta_{\text{rc}} + 0 - 0,5$	6.8	6.8
37.	29 – 31	$\Delta_{\text{rc}} + (1 - 1,5 \text{ sm})$	8.3	8.3
38.	29 – 12 yordamchi chiziq bilan tutashtiriladi va chiziq davomida $\Delta_{\text{rc}} + (0 - 0,5 \text{ sm})$ o'lchab 31 a – nuqta belgilanadi. Shundan so'ng 30, 31 va 31a – nuqtalar leykalo yordamida tutashtirilib old bo'yin o' mizi chiziladi.			
39.	28 – 32	25 – 30	3.8	3.8
40.	26 – 33	26 – 32	26.5	26
41.	30 va 33 – nuqtalar tutashtiriladi.			
42.	34 – 35	$\frac{1}{4} O_r - 1\text{sm}$	19.5	19.5
43.	38 – 39	$(34 - 35) + 2\text{sm}$	21.5	21.5
44.	35 – 36	Old va ort detallar oralig'i hisobga olinmagan holda $\frac{1}{2} O_r + (2 - 4\text{sm})$	44	44
45.	39 – 40	Old va ort detallar oralig'i hisobga olinmagan holda $\frac{1}{2} O_6 + (2 - 3\text{sm})$	55	55
46.	7 – 40 kesma orasidagi masofa bo'lsa chizig'iga yetmagan uzunlikni bildiradi. Shu uzunlik teng ikkiga bo'linib old va ort bo'lsa yon chiziqlariga qo'shib belgilanadi.			
47.	37 – 35 va 6 – 36 kesmalar orasidagi masofa old, ort yon qirqimlarining bel vitochkalarining kengligini beradi.			
48.	Bel chizig'i 1 sm yuqoriga ko'tarilib chiziladi. Ort bo'lak vitochka masofasi $1/3 III_{\text{cn}} + 1\text{sm}$ uznligi yuqoriga va pastga 15 – 17 sm. Old bo'lak vitochka uzunligi yuqoriga va pastga 15 sm. Leykalo va to'g'ri chiziqlar bilan yon qirqim chiziqlari chiziladi.			
49.	Old va ort bo'lak yelka qirqimlarini moslashtirish uchun, ort yelka qirqimiga parallel holda 1sm yuqoriga ko'tarib chiziladi va 16a – 19a, old yelka qirqimi 1 sm pastga yelka qirqimiga parallel holda chiziladi va			

	30a – 33a, 32a – 27a nuqtalari hosil boʻladi.			
50.	16 a – nuqtadan 3 – 5 sm oʻlchanib kurak chizigʻiga yordamchi chiziq tushiriladi. Shu chiziq kurak chizigʻi bilan tutashgan nuqtada kurak vitochkasining uchi boʻladi. Vitochka kengligi 1.5 sm.			
51.	12 – nuqtadan $\frac{1}{4} III_{np}$ belgilanib old boʻlakka yeng ulanadigan nuqtasi belgilanadi			
Yeng				
52.	1 – 2	B_{OK}	20.15	18
53.	1 – 3	Δ_p	60	60
54.	3 – 4	2 sm	2	2
55.	2 – 5	$(2 – 4) – 1sm$	16.45	16.45
56.	1, 2, 3, 5 – nuqtalardan oʻng tomonga gorizantal chiziqlar chiziladi.			
57.	2 – $A_{\bar{e}}$	$\frac{1}{4} III_{np}$	3.4	3.4
58.	Belgilangan nuqtadan 1 – nuqtadan chiqqon gorizantal chiziq bilan kesishtirib $\frac{1}{2} \Delta_{np}$ uzunlikdagi chiziq chizilib 6 – nuqta belgilanadi.			
59.	6 – nuqtadan pastga vertikaliga chiziq chizilib mos xolda 7, 8 – nuqtalar belgilanadi.			
60.	1 – 9	$(1 – 6)/2 + 1$	10.1	10.1
61.	1 – 10	$(1 – 9)/2$	5.05	5.05
62.	$A_{\bar{e}} – 11$	$(A_{\bar{e}} – 10)/2$	8.7	8.7
63.	6 – 12	$\frac{1}{4} III_{np} + 0.5 \text{ sm}$	3.9	3.9
64.	7 – 13	1 – 9	10.1	10.1
65.	9 – nuqtadan 11, 12 – nuqtalarga yordamchi chiziqlar chiziladi.			
66.	$(2 – 7)$ kesmaga parallel holda 0.5 sm yuqorida yordamchi chiziq chiziladi.			
67.	12 nuqtadan yordamchi chiziq boʻylab 0.5 sm belgilanadi va 13 – nuqta bilan tutashtiriladi			
68.	9 – 11 va 9 – 12 kesmalar markazi topiladi va perpendikulyar 1.2 sm va 1 sm yuqoriga chiziladi			
69.	$A_{\bar{e}}$ va S nuqtalari old boʻlak yeng oʻmizidan olinadi.			
70.	S nuqtadan 12 nuqtagacha leykalo chiziqlari bilan oʻmiz shakli chiziladi			
71.	5 – 14	0 – 1 sm	0.5	
72.	4 – 15	0 – 1 sm	0.5	
73.	8 – 16	1 sm	1	
74.	15 – 17	$\frac{1}{2} III_{pH}$	14	
75.	14 – 18	15 – 19		

2.5. LOYIHA OB'YEKTNi KONSTRUKTIV MODELLASH

Asos konstruksiya tanlangan modelga muvofiq quyidagicha modellashtirildi:

Jaket:

- Ort bo'lakda koketka uzunligi belgilandi
- Koketka modelga muvofiq qirqilib, kurak vitochkasi koketka ostiga kiritildi
- Ort bo'lak bel vitochkasi koketka ostigacha uzaytirilib relyef chok hosil qilindi
- Old bo'lak koketka uzunligi aniqlandi
- Koketka shakliga ko'ra qirqilib vitochka yopildi va vitochka koketka ostiga kiritildi
- Ko'krak vitochkasi bel vitochkasigacha davom ettirilib relyef chok hosil qilindi
- Bo'yin o'mizi va etak burchagi modelga muvofiq shakldor qilib modellashtirildi
- Old yon bo'lakda belbog' belgilandi
- Yengi $\frac{3}{4}$ uzunlikda belgilandi.
- Yengi bir chokli qilib loyihalandi.

Ko'ylak:

- Ort bo'lak bel chizig'idan yuqoriroqda qirqildi
- Ort etak konussimon kengaytirildi
- Old bo'lak ko'krak vitochkasi yon qirqimga o'tkazildi.
- Old bo'lak bel chizig'idan yuqoriroqda qirqildi
- Old etak konussimon kengaytirildi
- Old va ort bo'yin o'mizi modelga muvofiq modellashtirildi
- Ko'ylak yengi bir chokli qilib loyihalandi

2.6. ISHCHI HUJJATLARNI TUZISH

2.6.1. Yangi model andozalarini tayyorlash prinsiplari

Andozalarning chizmasi buyumni tuzuvchi barcha detallarga konstruktorlik hujjatlarining yaona sistemasi talablariga muvofiq tayyorlanadi.

Andozalar chizmasi quyidagi ketma – ketlikda bajariladi:

- Model konstruksiyasi batafsil tekshiriladi.
- Chizmaga gazlamaning kirishuvchanligiga bog'liq aniqlik kiritiladi.
- Detallarning nusxasi boshqa qog'ozlarga tushuriladi.
- Asosiy detallarning andozalarining ishchi chizmalari quriladi.
- Ishlab chiqarishga mo'ljallangan andozalar tayyorlanadi.

Andozalarni rasmiylashtirish va texnik talablar:

- Andozaning nomi: Etalon andoza, haqiqiy andoza, ishchi andoza.
- Tikuv buyumning nomi
- Model raqami
- Andoza vazifasi: Asosiy andoza, hosila andoza, yordamchi andoza.
- Detal nomi
- Tikuv buyumning o'lchami
- Modelga tavsiya etilgan bo'y va o'lchamlarning chegaralari
- Detalning gabarit o'lchamlari
- Bazis chiziqlari
- Tanda ipi yo'nalishi va ruxsat etilgan og'ish burchagi
- Detal qirqimlarida chok haqqi
- Nazorat kertiklari
- Spetsifikatsiya bo'yicha detal nomeri
- Konstruktorning familyasi, imzosi va chiqarilgan sana

Andozalardagi chok haqlari

2.5 – jadval

№	Detal va qirqimlar nomi	Chok haqqi nomi va qiymati (sm)					Izoh
		Biriktirma chok	Ag'darma chok	Buklash qayirishga	Qirqishga	Kirishtirish va ishlov berishga	
1.	2.	3.	4.	5.	6.	7.	8.
Jaket							
1.	Old bo'lak: – Yuqori qirqim – Relyef qirqim – Etak qirqim – Bort qirqim – Bo'yin o' miz qirqimi	1.0 1.0 1.0	 1.0 1.0				
2.	Old yon bo'lak: – Yuqori qirqim – Yeng o' mizi qirqimi – Yon qirqim – Pastki qirqim – Relyef qirqim	1.0 1.0 1.0 1.0 1.0			2d		
3.	Old koketka: – Yelka qirqim – Yeng o' mizi qirqimi – Pastki qirqim – Bo'yin o' mizi qirqimi	1.0 1.0 1.0	 1.0				
4.	Adip: – Yelka qirqim – Ichki qirqim – Yon qirqim – Etak qirqim – Bort qirqim – Yoqa o' miz qirqimi	1.0 1.0 1.0 1.0	 1.0 1.0				
5.	Ort bo'lak: – Yuqori qirqim – O'rta qirqim – Etak qirqim – Relyef qirqim	1.0 1.0 1.0 1.0					

6.	Ort yon bo'lak: – Yuqori qirqim – Relyef qirqim – Etak qirqim – Yon qirqim – Yeng o'miz qirqimi	1.0 1.0 1.0 1.0 1.0					
7.	Ort koketka: – Yelka qirqim – Bo'yin o'mizi qirqimi – O'rta buklov chizig'i – Pastki qirqimi – Yeng o'mizi qirqimi	1.0 1.0 1.0	1.0				Buklov
8.	Yeng: – Yeng qiyalamasi – Yeng yon qirqimi – Yeng uchi qirqimi – Yeng yon qirqimi	1.0 1.0 1.0 1.0					
9.	Yon pastki bo'lak: – Yuqori qirqim – Yon qirqim – Etak qirqim – Relyef qirqim	1.0 1.0 1.0 1.0					
10.	Ulama belbog': – Yuqori qirqim – Yon qirqim – Pastki qirqim – Relyef qirqim	1.0 1.0 1.0 1.0					
11.	Ort yoqa o'mizi mag'izi: – Yelka qirqimi – Bo'yin o'mizi qirqimi – Yelka qirqimi – Pastki qirqim	1.0 1.0 1.0	1.0				
12.	Ort etak mag'izi – Yuqori qirqim – O'rta buklov – Etak qirqim – Yon qirqim	1.0 1.0 1.0					Buklov
13.	Yeng uchi mag'izi – Yuqori qirqim	1.0					

	– Yon qirqim	1.0					
	– Pastki qirqim	1.0					
	– Yon qirqim	1.0					
14.	Belbog’						
	– Yuqori qirqim		0.7				
	– Yon qirqim		0.7				
	– Pastki qirqim		0.7				
	– Bort qirqim	1.0					
Ko’ylak							
15.	Old bo’lak:						
	– Yelka qirqim	1.0					
	– Yeng o’ mizi qirqimi	1.0					
	– Yon qirqim	1.0					
	– Bel qirqim	1.0					
	– O’rta buklov chizig’i						Buklov
16.	Old etak :						
	– Bel qirqim	1.0					
	– Yon qirqim	1.0					
	– Etak qirqim			3.0			
	– O’rta buklov chizig’i						Buklov
17.	Ort bo’lak :						
	– Yelka qirqim	1.0					
	– Bo’yin o’ miz qirqimi		0.7				
	– O’rta qirqim	1.0					
	– Bel qirqim	1.0					
	– Yon qirqim	1.0					
	– Yeng o’ mizi qirqimi	1.0					
18.	Ort etak:						
	– Bel qirqim	1.0					
	– O’rta qirqim	1.0					
	– Etak qirqim			3.0			
	– Yon qirqim	1.0					
19.	Yeng :						
	– Yeng qiyalamasi	1.0					
	– Yeng uchi qirqimi			2.5			
20.	Old bo’yin o’ mizi mag’izi :						
	– Yelka qirqimi	1.0					
	– Pastki qirqim						
	– O’rta buklov						

	– Bo'yin o'mizi qirqim		0.7				
21.	Ort bo'yin o'mizi mag'izi : – Yelka qirqimi – Bo'yin o'mizi qirqimi – O'rta qirqim – Pastki qirqim	1.0 1.0	0.7				
22.	Yeng o'mizi mag'izi: – Yuqori qirqim – O'miz qirqim – Yuqori qirqim – Ichki qirqim		0.7				

Detallar spetsifikatsiyasi

2.6 – jadval

№	Detallar nomi	Detal kodining belgisi	Detallar soni		Izoh
			Andozada	Bichiqda	
1.	2.	3.	4.	5.	6.
Jaket					
Avra detallar					
1.	Old bo'lak	01	1	2	
2.	Old yon bo'lak	02	1	2	
3.	Old koketka	03	1	2	
4.	Adip	04	1	2	
5.	Ort bo'lak	05	1	2	
6.	Ort yon bo'lak	06	1	2	
7.	Ort koketka	07	1	1	Buklov
8.	Yeng	08	1	2	
9.	Yon pastki bo'lak	09	1	2	
10.	Ulama belbog'	10	1	2	
11.	Ort bo'yin o'miz mag'izi	11	1	2	Buklov

12.	Ort etak mag'izi	12	1	2	
13.	Yeng uchi mag'izi	13	1	2	
14.	Belbog	14	1	2	
Astar detallar					
15.	Old yon bo'lak	15	1	2	
16.	Ort bo'lak	16	1	2	
17.	Yeng	17	1	2	
Qotirma detallar					
18.	Old bo'lak	18	1	2	
19.	Adip	19	1	2	
20.	Old koketka	20	1	2	
21.	Ulama belbog'	21	1	2	
22.	Ort yoqa o'miz mag'izi	22	1	1	Buklov
23.	Ort etak mag'izi	23	1	2	
24.	Yeng uchi mag'izi	24	1	2	
Ko'ylak					
Avra detallari					
25.	Old bo'lak	25	1	1	Buklov
26.	Old etak	26	1	1	Buklov
27.	Ort bo'lak	27	1	2	
28.	Ort etak	28	1	2	
29.	Yeng	29	1	2	
30.	Old yoqa o'mizi mag'izi	30	1	1	Buklov
31.	Ort yoqa o'miz mag'izi	31	1	2	
32.	Yeng o'mizi mag'izi	32	1	2	
Qotirma detallari					
33.	Old yoqa o'mizi mag'izi	33	1	1	Buklov
34.	Ort yoqa o'miz mag'izi	34	1	2	
